

**TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH
USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH****Iskandarov Murod Lukmanovich***“O‘zmilliybank” AJ**Xatarlarni boshqarish departamenti, Axborot-Analitika boshqarmasi boshlig‘i**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PHD***Abdullayeva Shaxnozaxon Baxodir qizi***O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti***Annotatsiya**

Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyatida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan. Bank faoliyatida yuzaga keladigan kredit, likvidlik, operatsion hamda bozor risklari tahlil qilingan. “Turonbank” AT misoli da risklarni boshqarish tizimi o‘rganilib, bank faoliyatida risklarni kamaytirishning zamonaviy mexanizmlari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish bank moliyaviy barqarorligini oshirish hamda bank tizimi samaradorligini ta‘minlashga xizmat qilishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *tijorat banklari, bank risklari, kredit riski, likvidlik riski, operatsion risk, risklarni boshqarish, Turonbank.*

Abstract

This article analyzes the improvement of risk management systems in commercial banks. Credit, liquidity, operational, and market risks in banking activities are examined. Using Turonbank AT as a case study, the risk management system is analyzed and modern mechanisms for reducing risks are proposed. The results show that improving risk management systems increases financial stability and enhances the efficiency of commercial banks.

Keywords: *commercial banks, risk management, credit risk, liquidity risk, operational risk, Turonbank.*

Kirish

Bugungi kunda tijorat banklari faoliyatida risklarni samarali boshqarish bank tizimi barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Banklar faoliyatida kredit riski, likvidlik riski, operatsion risk va bozor risklari doimiy ravishda uchrab turadi. Shu sababli banklarda risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimini rivojlantirish orqali banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish, muammoli kreditlar ulushi va operatsion risklarni kamaytirish hamda bank xizmatlari sifatini oshirish mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Tijorat banklarida risklarni boshqarish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, O.I. Lavrushin tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimini tashkil etishning nazariy asoslarini yoritib bergan. Uning fikricha, bank risklarini samarali boshqarish bank faoliyati barqarorligini ta'minlaydi.

P.S. Rose va A. Saunders tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bank risklarini baholash va monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi ta'kidlangan. Ushbu olimlar banklarda risklarni diversifikatsiya qilish orqali moliyaviy barqarorlikni oshirish mumkinligini qayd etgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh.Z. Abdullayeva bank risklarini boshqarishda zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish samarali natija berishini ta'kidlaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar jumladan: "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risidagi nizom"da (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2023 yil 18 aprelda 3427-son bilan ro'yxatga olingan), banklarda risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Basel qo'mitasi tavsiyalarida bank risklarini boshqarishning zamonaviy mexanizmlari ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu tavsiyalar tijorat banklari uchun muhim metodologik asos hisoblanadi.

Bugungi kunda tijorat banklari mamlakat iqtisodiyotining muhim moliyaviy institutlaridan biri hisoblanadi. Banklar iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda aholi jamg'armalarini jalb qilish orqali iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, bank faoliyati turli xil risklar bilan bog'liq bo'lib, ularni samarali boshqarish bank faoliyatining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, kreditlash hajmini oshirish hamda bank xizmatlarini raqamlashtirishni talab etmoqda. Ushbu jarayonlar bank faoliyatida risk darajasining ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari faoliyatida risklarning iqtisodiy mohiyati

Risk deganda biz noaniqliklarni maqsadlarga ta'sirini tushunamiz. Tijorat banklari faoliyatida risk deganda bank operatsiyalari natijasida moliyaviy yo'qotishlar yuzaga kelishi ehtimoli tushuniladi. Bank risklari turli omillar ta'sirida yuzaga keladi va bankning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bank faoliyatida quyidagi risk turlari mavjud:

- Kredit riski

- Likvidlik riski
- Bozor riski
- Valyuta riski
- Operatsion risk
- Bank portfelida yuzaga keluvchi foiz riski
- Mamlakat riski
- Komplayens riski

Kredit riski tijorat banklari faoliyatida asosiy risklardan biri hisoblanadi. Ushbu risk qarz oluvchining kredit majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasligi natijasida yuzaga keladi. Kredit riskining yuqori darajada bo'lishi bank daromadining kamayishiga olib keladi.

Likvidlik riski bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olmasligi bilan bog'liq. Ushbu risk bank aktivlari va passivlari o'rtasidagi nomutanosiblik natijasida yuzaga keladi.

Bozor riski — bu moliya bozoridagi narxlar, foiz stavkalari, valyuta kurslari va qimmatli qog'ozlar qiymatining o'zgarishi natijasida bankning zarar ko'rish ehtimoli hisoblanadi. Tijorat banklari investitsiya faoliyatini amalga oshirishda bozor riskiga duch keladi.

Bozor riski quyidagi omillar ta'sirida yuzaga keladi:

1. Foiz stavkalari o'zgarishi;
2. Valyuta kursining o'zgarishi;
3. Qimmatli qog'ozlar narxining pasayishi;
4. Inflyatsiya darajasining oshishi.

Masalan, bank obligatsiyalarga investitsiya qilgan bo'lsa, obligatsiyalar narxi pasayganda bank zarar ko'rish mumkin. Bu esa bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi.

Operatsion risk — bu bank faoliyatida ichki jarayonlar, xodimlar xatolari, texnik tizimlar yoki tashqi omillar natijasida yuzaga keladigan risk hisoblanadi.

Operatsion risk sabablari:

1. Xodimlarning xatolari;
2. Texnik nosozliklar;
3. Firibgarlik (ichki va tashqi) holatlari;
4. Axborot tizimidagi muammolar.

Masalan, xodim noto'g'ri pul o'tkazmasi amalga oshirsa, bank zarar ko'rish mumkin.

Valyuta riski — bu valyuta kurslarining o'zgarishi natijasida bank zarar ko'rish ehtimoli hisoblanadi. Tijorat banklari xorijiy valyutada operatsiyalar amalga oshirganida ushbu riskga duch keladi.

1. Valyuta riskining sabablari;
2. Milliy valyuta kursining o'zgarishi;

3. Xalqaro bozordagi o'zgarishlar;
4. Inflyatsiya darajasining oshishi.

Masalan, bank dollar kredit bergan bo'lsa, valyuta kursi o'zgarganda bank daromadi kamayishi mumkin.

Bank portfelida yuzaga keluvchi foiz riski — bu bozordagi foiz stavkalari o'zgarishi natijasida zarar (yo'qotish) ko'rish va (yoki) rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimolligi riski.

Bank portfelida yuzaga keluvchi foiz riskining sabablari:

1. Markaziy bank stavkasi o'zgarishi;
2. Depozit foizlari oshishi;
3. Kredit foizlari pasayishi.

Masalan, bank uzoq muddatli kreditni past foizda bergan, lekin jalb qilgan depozit foizlari oshgan bo'lsa, bank zarar ko'rish mumkin.

Mamlakat riski — xorijiy mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vaziyat yoki mazkur mamlakatdagi boshqa o'zgarishlar oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar ko'rish va (yoki) rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimolligi riski.

Mamlakat riski sabablari:

1. Siyosiy beqarorlik (siyosiy nizolar, urushlar, hukumat almashinuvi);
2. Qununchilik va tartibga solishdagi o'zgarishlar;
3. Iqtisodiy nozolar (inflatsiya, ishsizlik, valyuta qadrsizlanishi);
4. Xalqaro munosabatlarning yomonlashuvi (sanksiyalar, savdo cheklovlari).

Masalan, Agar Bank xorijiy mamlakatga pul tiksa va o'sha mamlakatda kutilmaganda siyosiy beqarorlik (masalan, hukumat almashinuvi yoki tartibsizliklar) yuzaga kelsa, Bank o'z investitsiyasini yo'qotishi yoki rejalashtirilgan foydani ololmasligi mumkin.

Komplayens riski — O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari, bankning ichki hujjatlari, shuningdek bank faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xorijiy mamlakatlarning hujjatlariga rioya etilmasligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar ko'rish va (yoki) rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimolligi riski.

Komplayens riski sabablari:

1. Qonunchilik talablarini yetarli darajada bilmaslik yoki noto'g'ri talqin qilish;
2. Bank ichki siyosatlar va tartib-qoidalariga rioya qilmaslik;
3. Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi holatlari;
4. Regulyator talablariga kechikib yoki noto'g'ri javob berish.

Masalan, Bank mijozga katta miqdorda pul o'tkazmasini amalga oshirishga ruxsat beradi, lekin mijozning shaxsini to'liq tekshirmaydi (KYC — "Know Your Customer" talablariga rioya qilinmaydi). Natijada: Bu mablag'lar noqonuniy faoliyat (masalan, pul yuvish) bilan bog'liq bo'lib chiqishi va buning natijasida Bank qonunchilikni buzganligi uchun jarimaga tortilishi va obro'siga putur yetishi mumkin.

Turonbank AT faoliyatida risklarni boshqarish tizimi

Turonbank AT O'zbekiston bank tizimidagi faol tijorat banklaridan biri hisoblanadi. Bank kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bank tomonidan kreditlash hajmining ortib borishi risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishni talab etadi.

Turonbank ATda risklarni boshqarish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- Kredit riskini baholash
- Kredit monitoringi
- Aktiv va passivlarni boshqarish
- Ichki audit tizimi
- Risklarni boshqarish bo'limi faoliyati

Bank tomonidan kredit ajratishda mijozlarning moliyaviy holati chuqur tahlil qilinadi. Kredit portfelining sifati muntazam monitoring qilinadi. Mijozlarin kreditlashda kredit siyosati talablariga rioya etiladi.

Risklarni boshqarishni takomillashtirish yo'nalishlari

Tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish bank faoliyatining barqarorligini oshirish va moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirish uchun muhimdir. Tijorat banklarida quyidagi yo'nalishlarda takomillashtirish choralari tavsiya etiladi:

- Zamonaviy raqamli risk baholash tizimini joriy etish

Banklarda risklarni aniqlash va baholash jarayoni tezkor va aniq bo'lishi lozim.

Buning uchun:

Kredit va bozor risklarini baholash uchun zamonaviy axborot tizimlari va algoritmlar joriy etish;

Risklar prognozini yaratish uchun sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (big data) texnologiyalaridan foydalanish;

Avtomatlashtirilgan tizim yordamida xatoliklarni kamaytirish va real vaqt rejimida monitoringni ta'minlash.

- Kredit portfelini diversifikatsiya qilish.

Kredit riskini kamaytirish uchun bank portfeli diversifikatsiya qilinishi zarur. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Kreditlarni turli sohalar va mijoz guruhlari bo'yicha taqsimlash;

Bitta mijozga yoki sektorga haddan ziyod kredit ajratmaslik;

Kichik va o'rta biznes loyihalarini moliyalashtirishni oshirish, bu esa bankning kredit riskini barqarorlashtiradi.

- Xodimlar malakasini oshirish

Operatsion risklarni kamaytirish bank xodimlarining malakasi va tajribasiga bog'liq. Shu maqsadda:

Xodimlarni muntazam o'qitish va malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

Ichki jarayonlar va yangi moliyaviy instrumentlar bo'yicha treninglar o'tkazish;

Xodimlar xatoliklarini kamaytirish va ish samaradorligini oshirish lozim.

- Ichki nazorat tizimini kuchaytirish

Ichki audit va nazorat bank faoliyatida yuzaga keladigan risklarni oldindan aniqlashga yordam beradi:

Ichki audit jarayonlarini zamonaviy metodlar bilan takomillashtirish;

Ichki protseduralar va standartlarni yangilash;

Bank faoliyatidagi zaif nuqtalarni aniqlash va ularni bartaraf etish.

- Stress test tizimini joriy etish

Bankning turli sharoitlarda ishlashini baholash uchun stress testlar o'tkazish muhimdir:

Bozor sharoitining keskin o'zgarishi yoki iqtisodiy inqiroz holatlarida bankning likvidlik va daromad holatini tahlil qilish;

Kredit portfeli va aktiv-passivlar balansini stress sharoitida tekshirish;

Stress test natijalariga asoslanib yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish choralarini ishlab chiqish.

- Risk monitoring tizimini kuchaytirish

Risklarni doimiy kuzatib borish va tezkor javob berish tizimi:

Kredit, bozor va operatsion risklarni muntazam ravishda monitoring qilish;

Xavfli holatlarni oldindan aniqlash va ularga tezkor choralar ko'rish;

Bankning umumiy moliyaviy barqarorligini saqlash uchun risk indikatorlarini doimiy tahlil qilish.

XULOSA

Tijorat banklari faoliyatida risklarni samarali boshqarish bank tizimining barqaror ishlashini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bank faoliyatida bozor riski, operatsion risk, Bank portfelida yuzaga keluvchi foiz riski, hamda mamlakat riski kabi risklar bank daromadlari va moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu risklarni o'z vaqtida aniqlash va baholash bank faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish uchun zamonaviy risk baholash usullarini joriy etish, ichki nazorat tizimini kuchaytirish hamda aktiv va passivlarni samarali boshqarish zarur hisoblanadi. Shuningdek, banklarda raqamli texnologiyalardan foydalanish operatsion risklarni kamaytirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarida risklarni samarali boshqarish banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, daromadliligini oshirish hamda bank tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risida”gi nizomi. www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki materiallari. – www.cbu.uz
4. Turonbank AT rasmiy sayti ma’lumotlari. – www.turonbank.uz
5. Lavrushin O.I. Bankovskoe delo. – Moskva: Knorus, 2021.
6. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va ularni boshqarish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
7. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for Risk Management. – Basel, 2019.
8. Rose P.S. Commercial Bank Management. – McGraw Hill, 2019.
9. Saunders A., Cornett M. Financial Institutions Management. – McGraw Hill, 2020.
10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari 2022–2024.
11. Turonbank AT yillik moliyaviy hisobotlari 2022–2024.